

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**O'ZBEK XALQINING CHIN DO'STI, TARJIMON VA SHOIR – ALEKSANDR  
FAYNBERG**

**O'ralov.U.B**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining talabasi*

**Yuldasheva.F.F**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining katta o'qtuvchisi  
Ilmiy rahbar:*

Ushbu maqola o'zbek xalqining chin do'sti, tarjimon va shoir Aleksandr Faynberg haqida yoritildi. Uning bosib o'tgan hayot kechinmalari, asarlari va tarjimalari ixcham tarzda berildi. Shoир she'rlarining asl maqsadi va uning jozibasiga guvoh bo'ldingiz.

Эта статья об Александре Файнберге, верном друге узбекского народа, переводчике и поэте. Его жизненный опыт, произведения и переводы даны в сжатой форме. Если вы станете свидетелем истинной цели стихов поэта и его обаяния.

This article is about Alexander Feinberg, a true friend of the Uzbek people, translator and poet. His life experiences, works and translations were given in a concise manner. You witnessed the true purpose of the poet's poems and his charm.

**Tayanch so'zlar;** xalq shoiri, adabiyot, madaniy hamkorlik, o'zbek choyxonasi, ixlosmand, badiiy film, tarjimonlik.

**Ключевые слова;** народный поэт, литература, культурное сотрудничество, узбекская чайхана, преданный, художественный фильм, перевод.

**Keywords;** people's poet, literature, cultural cooperation, uzbek teahouse, devotee, feature film, translation.

Adabiyot shunday bir dengizki, unda daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor; shunday bir chamanzorki, unda xushbo'y ifor taratgan gullar , hali ochimagan g'unchalarning tarovati bor; shunday bir oltin ko'prikki, u xalqni birlashtirib, do'stlik rishtalarini mustahkamlaydi. Zero, adabiyotning tili bitta, san'at tilidir . Adabiyot tarixida shunday ijodkorlar yashab o'tganki, ular garchi boshqa millat vakili bo'lsa-da, ijodi orqali o'zbek xalqini dardini, ruhini kuylagan, adabiyotimizni jahonga targ'ib qilishda mislsiz jonbozlik ko'rsatgan, ana shunday buyuk insonlardan biri O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan madaniy aloqalarini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun pushkin medali bilan tadirlangan, o'zining yoniq she'riyati bilan adabiyotimiz osmonida o'chmas iz qoldirgan O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg edi.

Aleksandr Arkadevich Faynberg 1939-yil 2-noyabr kuni Toshkentda –ota –onasi Novosibirskdan ko'chib kelgandan so'ng tug'ildi. Shundan so'ng u butun umri davomida Toshkent shahrida istiqomat qilib, ijod etdi. Bir necha yillar mobaynida Toshkentdagi yosh yozuvchilar seminariga rahbarlik qilgan.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

Shuningdek, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi hisoblangan. Faynberg nihoyatda serqirra ijodkordir.U 15 ta she'riy kitob yaratdi. Adib ssenariylari asosida o'rtta uzun metrajli badiiy filmlar va yigirmadan ortiq multiplikatsion filmlar suratga olindi.Uning adabiyotimiz oldidagi ulkan xizmatlari shundaki, Alisher Navoiy dostonlari va g'azallarini, Abdulla Oripov , Erkin Vohidov, Omon Matjon kabi zamonaviy o'zbek shoirlarining she'rлarini rus tiliga tarjima qildi va bu orqali rus xalqiga adabiyotimizning nodir gavharlaridan bahramand bo'lish imkonini berd, ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va madaniy aloqalarning rivojlanishiga xizmat qildi. Shuning uchun adibni tili va millatidan qat'i nazar, yurtimizdagи barcha adabiyot ixlosmandlari hurmat bilan tilga oladi. XX asr o'zbek adabiyotining buyuk namoyondasi, O'zbekiston Qahramoni , taniqli shoir Abdulla Oripov u haqida: "Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak, barcha baland so'zlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u, aslida, noyob shoir va tarjimon edi. Rus tilida so'zlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli o'lkamizga shunchalik samimiyoq qo'shiq kuylashi mumkin emas", - degan edi. Abdulla Oripovdek ulkan yozuvchining e'tiboriga sazovor bo'lganidan bilishimiz mumkinki, Aleksandr Faynberg ijod olamida o'ziga xos o'rin egallagan , o'zbek xalqi yuragiga chuqur kirib borgan insondir. Shoir ijodining badiiy olami o'tmish va hozirgi kun, G'arb va Sharq, milliylik va baynalmilallik o'zaro mutanosib tarzda uyg'unlashib ketganligi bilan ajralib turadi.

U adabiy bilimi va lug'at fondini tinimsiz boyitgani va she'riyat "sir" larini mukammal egallaganidan so'ng o'zbek shoirlarining asarlarini tarjima qilishga kirishadi va badiiy tarjima sohasida katta yutuqlarga erishad. Shu ijodiy jarayonda V. A. Jukovskiy iborasi bilan aytganda asarlari tarjima qilinayotgan shoirlarning "qul"i emas, balki munosib "raqib" bo'lishga intildi. Moskvada nashr qilingan O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning "Ruhlar isyonи" poemasi , Toshkentda chop etilgan "Oqqushlar galasi " nomli o'zbek shoirlari ijodidan qilingan tarjimalar jamlanmasi Faynberg tarjimonlik faoliyatining qo'sh cho'qqisi hisoblanadi .

Shoir she'rлari ham o'zbek xalqi qalbiga shu qadar chuqur kirib borganki, tasvirning sirli va jozibadorligi, tuyg'ular yorqinligi va tiniqligi o'quvchini o'ziga hamroh qiladi va xayollarini uzoq-uzoqlarga olib ketib chuqur o'yga to'ldiradi:

Suzayapman, muhabbat, olis

Gulxanlardan o'rlaydi tutun.

Sendan bo'sa oladi yulduz,

Bu qirg'oqdan ketman bugun.

Qirg'oqqa tashlayman langarcho'p,

Izmiga soladi moviy suv.

To'lqinlari yugurik, to'p-to'p

Daryo tubi –adabiy g'uluv

Daryo bo'ylab oqim betizgin,  
Tikilasan samoda –qushlar  
To'lqinlar ham ayriliq hissin  
Sezgan kabi bir –birin ushlar.

Sirg'aladi bo'zlarining qaynoq,  
Ko'rinxaydi gulxan tutuni.  
Bulutlarning ortida –qirg'oq:  
Kechir! – ko'kka sig'maydi uning.[1,24bet]

Naqadar yurakni larzaga keltiruvchi satrlar! Shoир tabiat va inson kechinmalarini shu qadar uyg'un tasvirlaydiki , bu tasvir she'rxonga ta'sir qilmay qolmaydi. Faqatgina ulkan iste'dodga ega bo'lgan ijodkorgina bu ishni qila oladi. Shuningdek, Faynberg she'rlariga oqko'ngil o'zbek xalqiga xos go'zal odatlarni uchqunli hajviya bilan shunday singdirib yuborganki, ular kitobxonni aslo befarq qoldirmaydi. Shoирning "Ruboiy tori" dostonini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Unda kulgu orqali tasvirlangan o'zbek choyxonasi tasvirini yuzda tabassumsiz o'qib bo'lmaydi .[2,13bet]

Xulosa qiladigan bo'lsak, Aleksandr Faynberg kuchli mehr- muhabbati, beqiyos sadoqati, adabiyotimizni dunyoga tanitishdagi buyuk xizmatlari tufayli xalqimizning buyuk shoiri bo'lib qoldi. Uning asarlari ma'naviyatimizga oziq, ruhimizga orom, qalbimizga huzur baxsh etadi . Demak, shunday insonni ardoqlamaslik , asarlarini sevib o'qimaslik mumkin emas !

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT:**

1. Aleksandr Faynberg, Chig'ir,-Toshkent 1985,24 bet
2. Aleksandr Faynberg, Ruboiy tori,-Toshkent 1986,13bet
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)
4. <https://arbobolar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
5. [.riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009](http://riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009)